



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Zamonlar o'tishi bilan bu obrazlarning talqini kengaygan va murakkablashgan, ammo ularning mohiyati — inson tabiatini badiiy shaklda anglash vositasi sifatida — o'zgarmay qolgan. Shu bois, ingliz ertaklarida hayvon obrazlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya va gender tadqiqotlari sohalarida ham dolzarb va sermahsul yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afzalov M.I. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 86 b.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 238 b.
3. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1976. – 155 b.
4. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – 192 b.
5. Jo'raev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – 308 b.
6. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990 – 304 b.
7. Imomov K. Ertak // O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1989. – B.69-70.
8. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b.
9. Musaqlulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 308 b.
10. Nurmurodov Y. O'zbek folklori nemis tilida. – T.: Fan, 1987 – 58 b.
11. Rahmonova M. O'zbek xalq afsonalarining badiiyati. – T.: Fan, 2009. – 136 b.
12. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqqa, 2010. – 368 b.
13. Shaniyazov K.K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – Tashkent: Fan, 1974. – 342 s.
14. Shomusarov Sh. Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – T.: Fan, 2002. – 380 b.

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI AYRIM SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATI

DSc, prof. Solnyshkina Marina Ivanovna

Qozon Federal universiteti, Rossiya

Buronova Xolida Toshtemirovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy til manbasi hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi sifatlar ma'nosiga, tub va yasamaligiga hamda darajalanish xususiyatiga ko'ra tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy til, sifat, xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, tub, yasama, daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja.

Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi, darajalanuvchi soʻz sifat deyiladi. Boshqa soʻz turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turgʻun belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida belgi tushunchasi oʻz ichiga rang-tus, hajm-shakl, xususiyat, makon-zamon, hid va maza kabilarni qamrab oladi. Qadimgi turkiy tilda ham sifat mustaqil soʻz turkumlaridan biri hisoblangan. Qadimgi turkiy til davrida yaratilgan barcha asarlarda sifat soʻz turkumining goʻzal namunalarini uchratishimiz mumkin. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida ham sifatlar faol qoʻllanilgan.[1]

Asardagi sifatlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1) Narsa-predmetning rangini bildiruvchi sifatlar:

Qurumish yigʻachlar tonandi **yashil**

Bezandi yapun **al sarigʻ koʻk qizil**

Yaʼni:

Yaprogʻini toʻkkan daraxtlar **yashil** kiyindi,

Ol, sariq, koʻk, qizil rang bilan bezandi.

Yoki:

Unin utti kaklik kular qatgʻura

Qizil agʻzi qan-teg qashi **qap qara**

Yaʼni:

Kaklik yoqimli ovoz bilan sayradi, qahqahlab kulmoqda,

(uning) **qizil** ogʻzi qon kabi, qoshi esa **qop-qora**.

2) Narsa-predmetning shaklini, hajmini bildiradi:

Oʻqushqa turur bu **agʻirlik** etuk

Oʻquhsiz kishi bir avuchcha **yenik**

Yaʼni:

Oʻquv qadri qimmat uchundir kafil,

Oʻquvsiz kishi bir hovuchcha **yengil**.

Yoki:

Biligni **bedug** bil, oʻqishni **ulugʻ**

Bu ikki bedutur udurmish qulugʻ

Yaʼni:

Bilimni **buyuk** qil, oʻquvni **chuqur**,

Bu ikkisi birla kishi ulgʻayur.

3) Narsa-predmetning xarakter-xususiyatini bildiradi:

Budun tili **yavlaq** seni soʻzlagay

Kishi qilqi **kirtuch** etingni yegay

Yaʼni:

Xalqning tili **yomon**, (doim) seni soʻzlagani-soʻzlagan,

Kishilar feʼli **hasadli**, u sening etingni yeydi.

Yoki:

Koʻru aldi Hajib orun berdi toʻr

Isig soʻzladi soʻz tilin **yaxshi** koʻr

Yaʼni:

Hojib qarshi oldi, toʻrdan oʻrin berdi,

Tilidan **yaxshi** soʻz chiqardi, **iliq** soʻzladi korgin.

4) Narsa-predmetning mazasini, ta'mini bildiradi:

Tatig' erdi barcha yigitlik ishim

Ag'u qildi emdi menar yer ashim

Ya'ni:

Yigitlikda barcha ishlarim **shirin** edi,

Endi (qarilik) mening yeydigan oshimni zaxar qildi.

Yoki:

Yoriq bo'lsa kimung budunqa siri

Suchig tutsi til so'z ne qusqi uri

Ya'ni:

Kimning sir-asrori xalqqa ayon bo'lsa,

Til va so'zi shirin, muloyim, xushmuomala bo'lsin

(Maza ma'nosini beruvchi shirin so'zi baytda maza-ta'm ma'nosida emas, balki metafora usulida ma'nosi ko'chib xususiyat ma'nosini ifodalagan)

Qadimgi turkiy tilda sifatlar boshqa turkum singari tub va yasama sifatlarga bo'lingan.[2] Asarda tub sifatlar bilan birga yasama sifatlar ham uchraydi. "Qutadg'u bilig" dagi yasama sifatlar asosan –**siz**, -siz, -suz; - **liq**, -lig, -lug', -lug; -**iq**, -iq, -ug', -ug, -**ig'**, -ig qo'shimchasi orqali yasalgan yasama sifatlar uchraydi. Masalan:

Jafasiz vafalig' tilasa qutun

Yuza ko'r qilinishi vafa uk qutun

Ya'ni:

Jafosiz, vafoli, qutli istasang,

Yuziga boq, qilmishi vafo (va) baxtdir.

Yoki:

Biliglig bilig berdi tilqa bishig'

Aya til idisi ko'dazgil bashig'

Ya'ni:

Bilimli (ya'ni xudo) tilga pishiq bilim bergan,

Ey, til egasi, boshingni asragin.

Yoki:

Kishi ko'nglu tub**suz** tengiz teg turur

Bilig yunju sani tubinda yatur

Ya'ni;

Kishi ko'ngli tub**siz** dengiz kabidir

Bilim inju kabi (uning) tubida yotur

Qadimgi turkiy tilda sifatlar bugungi kundagi yana bir xususiyatini, ya'ni darajalanish xususiyatini ham ifodalay olgan.[3] Asarda qo'llangan sifat darajalari quyidagi ma'noni ifodalaydi:

Narsa va predmetdagi belgining boshqa predmetdagi belgidan ortiqqligini bildiradi va sifat oldidan kad, tugal, ang so'zlarini keltirish orqali hosil qilinadi.[4]

Masalan:

O'qush ul senar edgu andlig' adash

Bilig ul sena **kad bag'irsaq** qadash

Ya'ni:

Zakovat sen uchun ezgu ontli do'stdir,

Bilim sen uchun **o'ta mehribon** qarindoshdir.

Belgining biror belgidan ortiq yoki biroz kamligini ko'rsatadi va –rak, -raq qo'shimchalari orqali hosil qilinadi.

Masalan:

Qayusi o'rur**ak** qayusi qudi

Qayusi yaruq**raq** qayu eksudi

Ya'ni:

Ba'zilar yuqori**roq**, ba'zilar quyi(roq)dir,

Qay birlari yorug'**roq**, qay birlari xiraroqdir.

Xulosa qilib shuni aytishim joizki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan sifatlar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigandek xususiyatlarga, ya'ni rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, xususiyat-xarakter kabi ma'nolarni ifodalagan. Asarda ifodalangan sifatlardan tub va yasamalarini, hatto darajalanganlarini ham kuzatishimiz mumkin. Demak, sifat so'z turkumi qadimgi turkiy til davrida tarixan tarkib topgan, shakllangan, o'ziga xos qonuniyatlariga ega bo'lgan, mustaqil so'z turkumlari orasida o'ziga munosib o'rin egallagan turkum bo'lgan desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti., Toshkent-1971.

2. N.Abdurahmonova "Qadimgi turkiy til". "O'qituvchi" nashriyoti., Toshkent-1989.

3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili"., Toshkent-2009.

4. Qosimjon Sodiqov "Turkiy til tarixi"., Toshkent-2009

5. Тоштемировна, БХ (2023). НЕКОТОРЫЕ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАГОЛОВ В НАДПИСИ ТУНЬЮКУК (НА ОСНОВЕ РЕЛЯЦИОННЫХ ФОРМ). *Репозиторий открытого доступа* , 4 (3), 374-377.

6. Тоштемировна, БХ (2022). Характеристика употребления слов, относящихся к некоторым прилагательным, в произведении Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу билиг». *Сеть ученых: Международный научно-исследовательский журнал* , 3 (11), 976-981.

7. Buronova, X., & Aliqulova Sojida , A. S. . (2023). O'ZBEK BADIY ASARLARIDA EKZOTIZMLARNING QO'LLANISH XUSUSIYATI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7752>